



**VIRTUAL
CONFERENCES**



**APRIL
2021**
INDONESIA

**INNOVATIVE RESEARCH
OF THE XXI CENTURY:
SCIENCE AND EDUCATION**

International Conference

BIOLOGICAL SCIENCES

Akbarova Mukhayo Xusanovna, Tolipov Nodirbek Khasanboy oglu, Hoshimova Gullola Abduvali kyzy LATENT PERIOD IN ONTOGENESIS SCUTELLARIA CORDIFRONS JUZ.....	6
Hamroqulov Ulug'bek Abdurahim o'g'li, Matkarimova Gulnaz Maqsudjanovna ODAM XROMASOMALARINING MORFOFUNKSIONAL XARAKTERISTIKASI VA KLASSIFIKATSI.....	8
Амонова Дилдора Баходировна ҚИЗИЛ НУРЛАНИШ ВА ГИББЕРЕЛЛИННИНГ ҒЎЗА ЎСИМЛИГИ УНУВЧАНЛИГИГА БИРГАЛИКДАГИ ТАЪСИРИ.....	10

CULTUROLOGY

Аллаёрова Шахноза РОЛЬ И ОСОБЕННОСТИ РЕКЛАМЫ В ТУРИЗМЕ.....	12
---	----

ECONOMIC SCIENCES

Khamrokhujayeva Sitorabonu THE CHANGE OF MONEY SUPPLY, MONETARY BASE AND THE MONEY MULTIPLIER IN THE UNITED KINGDOM IN 2005-2010.....	14
Shaniyazova Zamira Oralbaevna AGRAR SOHANI RIVOJLANTIRISHDA MOLIYAVIY QO'LLAB QUVVATLASH VA XORIJY TAJRIYUBALAR.....	17
Жубанова Байрамгул Аймуратовна КОРХОНАЛАРНИНГ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ МОЛИЯЛАШТИРИШДАГИ МУАММОЛАР ВА ЕЧИМЛАР.....	19
Ташмухамедова Карима Саматовна, Нигматжонов Диёржон Ғайратжон ўғли ИНВЕСТИЦИОННЫЙ КЛИМАТ И ЕГО ПОТЕНЦИАЛ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	21
Турсунова Муниса Хужаёр кизи, Турсунова Ибодат Хужаёр кизи ДВИЖЕНИЯ ЦИФРОВЫХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ В БАНКОВСКОМ ДЕЛЕ.....	23

PHYSICS AND MATHEMATICS

Fayziev Shakhobiddin Shavkatovich, Sulaymonov Sherzod Baxshulloyevich INFLUENCE OF LIGHT ON MAGNETIC ORDER MODULATION CRYSTAL $FeBO_3:Mg$..	25
--	----

GEOGRAPHICAL SCIENCES

Ҳомидова Муҳтасархон Маннобовна АНДИЖОН ВИЛОЯТИДА СУВ РЕСУРСЛАРИДАН САМАРАЛИ ФОЙДАЛАНИШ МУ- АММОЛАРИ.....	27
--	----

HISTORICAL SCIENCES

Feruz Sayfullayevich Boboyev ARMED MOVEMENT AGAINST THE SOVIET RULE IN THE TURKMEN SSR (1926).....	30
Караманова Гулистан, Жумабоева Феруза, Утемуратова Ханна МУЗЕЙЛАРНИНГ ИЖТИМОЙ ФУНКЦИЯЛАРИ.....	32
Купайсинов Исмоил Ахмаджанович ЭЛЧИЛИК ЭСДАЛИКЛАРИ МАНБАШУНОСЛИГИ.....	34

LITERATURE

Axmedova Mashhuraxon Ulug‘bek qizi ABDULLA ORIPOV ASARLARINING UMUMINSONIY AHAMIYATI.....	36
Доронина Ирина Николаевна, Рахимов Азизбек Мадийр угли СМЫСЛ НАЗВАНИЯ, И ОСОБЕННОСТИ ЖАНРА КОМЕДИИ А. П. ЧЕХОВА «ВИШНЕВЫЙ САД».....	38

MEDICAL SCIENCES

Sagdiyana Buranova, Khalmurad Akhmedov THE VALUE OF THE INDICATORS OF THE LEVEL OF OLIGMERIC MATRIX PROTEIN OF CARTILAGE (COMP) IN THE EARLY DIAGNOSIS OF OSTEOARTHRITIS	40
Мамадалиева Яшнара Мамасалиевна, Хушназаров Хасан Холикович, Абдукодирова Махфуза Ботировна РОЛЬ И ПРЕМЕНЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ МУЛЬТИПАРАМЕТРИЧЕСКОЙ УЛЬТРАЗВУКОВОЙ ДИАГНОСТИКИ ОЧАГОВЫХ ОБРАЗОВАНИЙ ЩИТОВИДНОЙ ЖЕЛЕЗЫ.....	42

PEDAGOGICAL SCIENCES

Allayarova Sevara POSSIBILITIES OF AESTHETIC EDUCATION OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH MOVING GAMES.....	44
Azimova Shaxnoza Islombekovna O‘QUVCHILARNING BILISH TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDA TARIX DARSLARINING O‘RNI	46
Bagbekova Laylo Kadirberganova COMPUTER GRAPHICS - A MODERN DIRECTION OF THE PEDAGOGICAL EDUCATIONAL PROCESS.....	48
Dildora Hakimov BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QUVCHILARIDA ADABIY TAHLIL MALAKASINI SHAKLLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH	51
Isamitdinov Sodir Sobirovich, Usmonova Muqaddasxon Abdujalil qizi UMUMTA‘LIM MAKTABINING BOSHLANG‘ICH SINFI O‘QITUVCHILARIDA KREATIVLIKNI SHAKLLANTIRISHDA ILG‘OR TAJRIBALARDAN FOYDALANISH.....	53
Karshiyeva Ruzigul Mirzakulovna THE METHODS OF GRAMMAR COMPETENCE IN GFL LESSONS	55
Latifjon Nozimov ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR‘S WORK “BOBURNOMA” ISSUES OF MILITARY- PHYSICAL EDUCATION.....	58
M. Botirova TA‘LIM OLUVCHILARNING MUSTAQIL ISHLARINI TASHKIL ETISH TEXNOLOGIYASI.....	59
M. Sirojiddinova INTERFAOL METODLARNING TA‘LIM MAZMUNI XUSUSIYATLARIGA MOS KELISH.....	61
Sodiqova Mohlaroyim KICHIK YOSHDAGI BOLALARGA IMLO QOIDALARINI O‘RGATISHNING INNOVATSION USULLARI.....	63
Umarova Fotima Abduraximovna TA‘LIM TIZIMIDA AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI	65
Вахобжонова Замзамхон, Исмоилов Абдурашид МОТИВАЦИЯ ДЕЛАЕТ ОБУЧЕНИЕ НАМНОГО ПРОЩЕ, ПРИЯТНЕЕ И УСПЕШНЕЕ.	67
Диерова Наргиза Омоновна ИНТЕГРАЦИЯ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ОБУЧЕНИЯ	69

Дилмуродова Нилуфар Асатуллаевна ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИГА ЖОРИЙ ЭТИЛИШИ	71
Наргиза Усманова ЗАМОНАВИЙ БОШ КИЙИМЛАР – АЁЛ ТАШҚИ ҚИЁФАСИНИНГ БЕЗАГИ СИФАТИДА	73
Тошбоева Барно, Азизова Нодыра ОЦЕНОЧНЫЕ МЕТОДЫ ДОСТИЖЕНИЙ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПО ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ	76
Умарова Захро Абдурахим кизи ЭЛЕКТРОННЫЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЙ МЕДИА СРЕДА КАК КЛЮЧ ЭФФЕКТИВНОСТИ САМООБРАЗОВАНИЯ СТУДЕНТОВ.	78
Х. А. Умаров ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ПЕРЕДОВОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ ТЕХНОЛОГИИ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ ПРЕДМЕТОВ.	80

PHILOLOGICAL SCIENCES

Akram Ibragimov THE BENEFITS OF INFORMATION TECHNOLOGIES IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES AND CONDUCTING EFFECTIVE LESSONS INNOVATIVELY BY MEANS OF INTERACTIVE TEACHING METHODS.	82
Aslamova Farangiz Asliddin qizi ONA TILI VA CHET TILLARIDA MULOQOT JARAYONINING KECHISHI.....	84
Bahriddinova Nilufar HOW TO LEARN ENGLISH FAST AND FLUENTLY	85
Саодат Кулбаева, Холматов Исломжон ОСНОВНЫЕ СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ УСТНОЙ РЕЧИ И СФОРМИРОВАНИЕ МОТИВАЦИОННЫХ АСПЕКТОВ УЧАЩИХСЯ	86
D. M. Zokirova PARAMETERS OF CROSS CULTURAL COMMUNICATION.	88
Raimova Volida ROLE OF MOTIVATION IN LANGUAGE TEACHING	90
Saidbekova Raykhona Rustambekovna CONCEPT OF “FAMILY” IN THE NOVEL “AND THE MOUNTAIN ENCHOED” BY KHALED HUSSEINI	92
Tadjieva Maftuna USING GAMES IN VOCABULARY TEACHING	94
Umurzaqova Shaxzodakhon, Khalimova Muhayo STYLE AND TRANSLATION FEATURES ADVERTISING TEXT	96
Zayrova Kanshayim THE FEATURES OF THE STYLISH USE OF THE TERMS OF CLOTHING IN KARAKALPAK LANGUAGE.....	98
Махкамова Шахноза Туйчибаевна О НЕКОТОРЫХ ТРУДНОСТЯХ ПРИ ОБУЧЕНИИ ПРОФЕССИОНАЛЬНО- ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЛЕКСИКЕ	100
Ҳабибжонов Икромжон Тошпўлат ўғли ЎЗБЕК ТИЛИ СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНЛАРИНИНГ МУСТАҚИЛЛИК ДАВРИДА ШАКЛЛАНИШИ.....	102

PHILOSOPHICAL SCIENCES

Govsiddinov Maruf Nasridinovich ALISHER NAVOI AND ABDURAHMAN JAMI’S VIEWS ON SUFISM (IN YE BERTELS INTERPRETATION).	104
---	-----

Валиева Садокат Шокировна, Махмудова Азиза Нугмановна
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИНING БИРИНЧИ ПРЕЗИДЕНТИ ИСЛОМ КАРИМОВ
ТАРИХ, МАЪНАВИЙ-МАЪРИФИЙ МАСАЛАЛАР ҲАҚИДА107

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

Qodirova Malikaxon Qaxramonovna, Do'ngboyeva E'tibor
TALABALAR MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOİY – PSIXOLOGIK
OMILLARNING O'RNI.....110

Yusupova Hurliman Salamatovna, Orazbaeva Zulxumar Quwanishovna
ПРОБЛЕМА ПРОФЕССИОНАЛИЗАЦИИ В ФОРМИРОВАНИИ ЛИЧНОСТИ.....113

AGRICULTURAL SCIENCES

Usmanov S. P., Nurjono F. A., Nurjanov A. A.
GIS TECHNOLOGY AND LOCUST MONITORING IN UZBEKISTAN115

STATE AND LAW

Фазлиддин Жамолитдинович Очилдиев
ЯНГИЛАНАЁТГАН ЎЗБЕКИСТОНДА ФУҚАРОЛАРНИ МУРОЖААТ ҚИЛИШ
ҲУҚУҚИНИНГ КАФОЛАТЛАРИ117

TECHNICAL SCIENCE

Abduvoidov Hasan Ilhomovich
DISCOVERING THE POSSIBILITY OF LIFE AMONG OTHER PLANETS120

Arabov Jasur Olimboyevich
QIYA –NAMLANADIGAN QUYOSH SUV CHUCHUTGICHLARINING TUZILISHI VA
ISHLASH PRINSPI.121

Kamolova Yulduzkhon Mamurjonovna
THE USE OF MODERN COMPUTER TECHNOLOGIES FOR SPEECH CORRECTION IN
CHILDREN123

Shixova Inobat Omonovna
MALAKA OSHIRISH TIZIMIDA MATEMATIKADAN SINFDAN TASHQARI
MASHG'ULOTLARNI FANLARARO INTEGRATSIYA ASOSIDA SAMARALI TASHKIL
QILIN USULLARI.....125

Курбонов Тохир Алдияр угли
ЗАЩИТА ИНФОРМАЦИИ ОТ КОМПЬЮТЕРНЫХ ВИРУСОВ.127

**Қодиров Жобир Рўзимаматович, Нуриллоева Феруза Амрилло кизи,
Ҳакимова Сабина Шамсиддин кизи**
ПАРАБОЛОЦИЛИНДРИК КОНЦЕНТРАТОРЛАРНИНГ ЎЛЧАМЛАРИ АНИҚЛАШ
УСУЛЛАРИ.129

PSYCHOLOGICAL SCIENCES

TALABALAR MA'NAVİYATINI SHAKLLANTIRISHDA IJTIMOİY – PSIXOLOGIK OMILLARNING O'RNI

Qodirova Malikaxon Qaxramonovna, Jizzax DPI, kata o'qituvchi
Do'ngboyeva E'tibor, Jizzax DPI, 1-bosqich talabasi

Annotasiya: Maqolada talabalar ma'naviyatini shakllantirishda ma'naviy-axloqiy tarbiyaning o'rni va ahamiyati hamda Talabalar ma'naviyatini shakllantirishda ijtimoiy – psixologik omillarning o'rni yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: ma'naviyat, axloq, ma'naviy shakllanish, talaba-yoshlar, ruhiy ma'naviy salohiyat, ta'lim-tarbiya, sog'lom nasl, ruhiy tetiklik, sog'lom fikr, ma'naviy barkamollik, ma'naviy yuksalish.

Аннотация: В статье описывается роль и важность духовных и важных и социально-психологических факторов в формировании морального духа студентов.

Ключевые слова: духовность, мораль, духовная мощность, здоровье, здоровый перец, здоровое освежение, духовное разведение, духовный духовный рост.

Annotation: In the article, the article describes the role and importance of spiritual and importance and socio-psychological factors in the formation of the morale of students.

Key words: Spirituality, morality, spiritual capacity, health, healthy pepper, healthy refreshment, spiritual breeding, spiritual spiritual increase.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida yoshlarni ma'naviy etuk va jismonan sog'lom, vatanparvar va fidoyi etib tarbiyalash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi.

Mazkur sohadagi faoliyatni tubdan takomillashtirish va yangi yuksak sifat bosqichiga ko'tarish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati samaradorligini oshirish va O'zbekiston yoshlar ittifoqi faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi.

"O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar" dasturining 2-bo'limi - Yuksak ma'naviyatli, mustaqil fikrlovchi, qa'tiy hayotiy pozitsiya, keng dunyoqarash va chuqur bilimlarga ega bo'lgan vatanparvar yoshlarni tarbiyalash, ularni turli ma'naviy tahdidlarga qarshi immunitetini shakllantirish deb nomlangan.

Bundan tashqari Prezidentimiz Mamlakatimizni kelgusi besh yilda yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida oliy ta'lim sohasini taraqqiy ettirish borasida ham kompleks chora-tadbirlarni belgiladi.

Bunday islohotlar hayotda to'la samara berishi, avvalo, zamonaviy bilim, kuchli intellekt va yuksak ma'naviyatga ega kadrlarga bog'liq. Demak bunday islohotlarda bidek talabalarning ham ishtiroki muhim. Rahbarimiz biz yoshlarga yaratib berayotgan shart-sharoitlardan unumli foydalangan holda davlatimiz ravnaqiga o'z bilim va salohiyatimiz bilan hissa qo'shmog'imiz lozim.

Bunda talaba yoshlarning ma'naviy shakllanishiga e'tiborni qaratish muhimdir. Xo'sh ma'naviy shakllanish nima va u nimaga asoslanadi?

Talabalarni ma'naviy shakllantirishda ma'naviy – axloqiy tarbiya muhim o'rin tutadi. Ma'naviy – axloqiy tarbiyadan ko'zlangan asosiy maqsad talabalarga ijtimoiy hayotda o'z o'rnini o'zi topishi, o'zini kamol toptirishi, o'z taqdirini o'zi belgilashi, yaratishi uchun imkoniyat yaratib beradi.

Ma'naviy – axloqiy tarbiyada umuminsoniy, milliy qadriyatlar asosida talabalarni ma'naviy – axloqiy shakllantirish yotadi. Bu esa ta'lim – tarbiya jarayoni vazifasini ado etishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Mamlakat mustaqilligini mustahkamlash, ijtimoiy – siyosiy, iqtisodiy, harbiy, huquqiy va boshqa sohalaridagi islohatlarining taqdiri, yurtning kelajagini barpo etish talaba yoshlarning ma'naviy – axloqiy tarbiyalanganlik darajasiga, yuksak ongiga, ijtimoiy faolligiga bog'liq.

"Taraqqiyot taqdirini – deya ta'kidlagan edi birinchi Prezidentimiz, - ma'naviy jihatdan yetuk odamlar hal qiladi. Texnikaviy bilim, murakkab texnologiyani egallash qobiliyati ma'naviy barkamollik bilan, mustaqil tafakkur bilan birga borishi kerak. Aqliy zakovat va ruhiy ma'naviy

salohiyat – ma’rifatli insonning ikki qanotidir. ” Shunday ekan, bugungi kunda har bir talaba, yoshlar (o’quvchi) ma’naviy immunitetga ega bo’lishi, Vatan va xalq oldidagi muqaddas burchlarini chuqur anglash, jamiyatda yuz beradigan har qanday axloqsizlik holatlariga qarshi kurasha bilishi zarur.

Bugun butun dunyoda kuch – qudrat emas, aql tafakkur va g’oyalar jangi ketmoqda. Tafakkur cho’qqisiga esa ma’naviyat orqali boriladi. Ma’naviyat maqsadiga aylangan talaba, yoshlar esa dunyoda hech qachon, hech kimdan, hech bir sohada kam bo’lmaslikka intiladi. Hech vaqt insonning ma’naviy qarashlari o’z – o’zidan, bo’sh joyda shakllanmaydi. Uning vujudga kelishi va rivojlanishida tarixiy, tarbiyaviy va ijtimoiy omillarning, ayniqsa oila va oiladagi ma’naviy tarbiyaning o’rni beqiyos.

Hozirgi vaqtda ta’lim – tarbiya tizimida ma’naviy yetuk insonni shakllantirish bilan jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotiga erishish mumkin. Talabalarining ma’naviyatini shakllantirishning ijtimoiy asoslaridan biri oila, maktab (kasb-hunar maktablari, universitet) va mahallaning o’zaro birligi, xalqning boy milliy madaniy, tarixiy an’analariga, urf – odatlari, umumbashariy qadriyatlariga asoslangan o’qitish ham o’z natijasini beradi. Jamiyatning taqdiri va rivoji ko’p jihatdan Oliy ta’lim talabalari, ya’ni bo’lg’usi mutaxassislar qo’lida hisoblanadi.

Talabalar ma’naviyatini shakllantirishda ijtimoiy – psixologik omillarning o’rni muhimdir. Birinchi navbatda sog’lom nasl tushunchasi yotadi.

Sog’lom nasl – bu farzandni dunyoga keltirayotgan har bir ota-ona mamlakat, millat oldidagi burchini his qilgan holda sog’lom turmush tarzini kundalik hayotga tadbiq etish demakdir. Sog’lom fikrlovch har bir talaba bu tushunchani idrok eta oladi va bunga e’tiborsiz bo’lmaydi.

Ikkinchi ijtimoiy psixologik omil jismoniy barkamollikdir. Bu har bir inson sog’lom farzand dunyoga keltirish ma’suliyatini his etishi demakdir. Har tomonlama sog’lom talaba bu tushunchani anglagan holda atrofga befarq bo’lmaydi. O’z naslini sog’lom davom ettirish uchu sog’lom fikrlaydi, sog’lom tafakkur yuritadi.

Uchinchi omil ruhan tetiklikdir. Ruhan tetiklik – bu sog’lom psixologik muhit, tetik va yetuk aqliy barkamollik, ma’naviy sog’lomlik tushuniladi. Shu bilan birga inson ruhiyatining tetikligi deganda atrofga, borliqqa, insonlarga nisbatan ijobiy munosabatning shakllanganligi tushuniladi. O’z ruhiyatini tetiklashtirish talabaning o’zi tomonidan boshqariladi. Talaba atrofni anglashi, o’zini tutishi, o’zini boshqara olishi, o’z hissiyotlarini jilovlay olishi shular jumlasidandir.

Keyingi omil bu sog’lom fikrlash. Sog’lom fikr – sog’lom odamga xos. Oliy ta’limda mutaxassislikni o’zlashtirayotgan har bir talaba o’z maqsadini anglab yetgan hisoblanadi. Demak, bu talaba sog’lom fikrga ega. Sog’lom fikr uchun sog’lom muhit bo’lishi muhim. Muhitning sog’lomligi har qanday insonning fikri sog’lom bo’lishini ta’minlaydi. Talabaning sog’lom fikrlashi uning ma’naviy barkamolligidan dalolat beradi.

Ma’naviy barkamollikning yana bir muhim omillaridan biri bu - iymon – e’tiqoddir. Bu talabalarining ota – ona, vataniga, xalqiga sodiq bo’lishi bilan belgilanadi. Talabaga xos mehribonlik, hayrihohlik, vijdon, ma’suliyat, mustaqil fikr, o’zgalarga qayg’urish, muruvatli bo’lish kabi xislatlar ma’naviyatiga xosdir. O’z burchini bilish, uni ado etish hamda o’z milliy urf odatlariga, an’analariga sodiq qolish ham e’tiqod ko’rinishlari hisoblanadi. Talabalar ma’naviy barkamolligida bu juda muhimdir.

Ma’naviy barkamollikning yana bir omili - bilimdir. Bilim – bozor iqtisodiyoti sharoitida har bir yoshning o’zi tanlagan kasbi, mutaxassisligi bo’yicha bilimdon bo’lishi tushunchasidir. Hozirda yoshlarimizning bilimli bo’lishini ijtimoiy hayotning o’zi talab qilmoqda. Bilim olish tushunchasi singdirilgan yoshlar hozirda mamlakatimizning turli ta’lim muassasalarida o’zlari qiziqqan mutaxassisliklar bo’yicha bilim olmoqdalar.

Ma’naviy yuksaklik – bu ma’naviy barkamollikning eng muhim omillaridan biri bo’lib, talaba yoshlarning ma’naviy yuksaklikni ma’naviy qashshoqlikdan ajrata olish qobiliyatidir. Bu ma’suliyatli vazifani amalga oshirishda oila va ta’lim muassasalarining o’rni kata.

Oliy o’quv dargohlarida ta’lim olayotgan talabalarining ma’naviyatini shakllanishida ma’naviy tarbiyaning ham o’z o’rni bor. Bu ma’naviy tarbiya ahloqiy, aqliy, mehnat, kasb – hunar, vatanparvarlik, jismoniy, ekologik, estetik tarbiya turlari bilan yoshlar ongi va qalbiga singdirilib boriladi.

Ma’naviy tarbiya mahsuli odamiylikda ekanligini Alisher Navoiy shunday izohlaydi: Menga ne yoru, ne oshiq havasdir. Agar men odam o’lsam, ushbu basdir. Hozirgi sharoitda Oliy ta’lim dargohlari talabalarni yuksak ma’naviyatni egallash, atrofda ro’y berayotgan voqealarga dahldorlik, iymon – e’tiqodli, aqliy faol bo’lishi, ishbilarmon bo’lishi, o’z qobiliyatlarini tinimsiz takomillashtirib borish, irodaviy zo’r berish, yuqori malakani egallash, raqobatdan qo’rqmaslik va uni yengib chiqishga qodirlik ijtimoiy kamolotga xizmat qilish ruhida tarbiyalashlari lozim. Ana shu fazilatlarini egallagan talabalarda kelajakda o’z amaliy faoliyatidan kelib chiqishi mumkin bo’lgan har qanday iqtisodiy

inqirozlarga qarshi tura olish imkoniyati ham shaklanadi.

Ma'naviy ta'lim talabani aqliy, intellektual, ma'naviy, jismoniy rivojlanishida muhim pedagogik omil bo'lib xizmat qilmoqda. Jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichidamamlakat ravnaqini ko'p jihatdan uzliksiz ta'lim tizimida shaxsni har tomonlama rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlarini belgilab beradi. Shu sababli ta'limning istiqboli, bugungi kunda tayyorlanayotgan mutaxassislarning bilimdonligi, kasb mahorati yuksak, ma'naviyatliliklari bilan o'z kelajaklarini qurish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev. Toshkent sh., 2016 yil 14 sentyabr, O'RQ-406-son.
2. O'zbekiston prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi.
3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat yengilmas kuch. "Ma'naviyat" nashriyoti. 2008 yil.
4. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. Fan va texnologiya nashriyoti. 2012 yil.